

Do`stlik tuman axborot-kutubxona markazi



MIRKARIM OSIM
tavalludining 116 yilligiga
bag'ishlab
“ZULMAT ICHRA NUR”
nomli kitobxonlarga
TA VSIYANOMA

DO`STLIK TUMAN AXBOROT-KUTUBXONA
MARKAZI

DO`STLIK SHAXRI-2023

*Tuzuvchi Axborot bibliografiya xizmati
rahbari M.Raximova.*



Mirkarim Osim (1907 — Toshkent — 1984) — yozuvchi va tarjimon. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi (1944), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1977). Dastlab eski maktabda, so‘ngra „Shams ul-urfon“ boshlang‘ich maktabi (1917—1920), Narimonov nomidagi ta’lim va tarbiya texnikumi (1921—1924)tahsil olgan. Moskvadagi Bubnov nomidagi pedagogika institutini tugatgan (1926—1930). Samarqandda o‘qituvchilar tayyorlash kursida dars bergen (1930). Davlat nashriyotida muharrir (1931), Toshkent Ped. fanlari ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodim (1932—49), G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida muharrir (1959—1972).

„Yangi ariq“ ilk qissasi (1925) Qo‘qon xonligini ideallashtirgan asar sifatida bosilmay qolgan. Mirkarim Osim 1935—1936-yillarga kelib she’r yoza boshlagan. Dastlabki yirik asari — „Astrobod“ tarixiy qissasi Alisher Navoiy hayotiga bag‘ishlangan. Shundan keyin u Navoiy haqida turkum qissa va hikoyalar yozgan (1937—1940). Mirkarim Osim O‘rta Osiyo xalqlari tarixining eng qad. davridan 1917-yilga qadar kechgan vaqt ichida o‘tgan muhim tarixiy voqealarni va shu davrda yashagan o‘zbek xalqi ulug‘ siymolari hayotini aks ettiruvchi o‘nlab qissa va hikoyalar muallifi. „To‘maris“, „Shiroq“, „Iskandar va Spitamen“, „Temur Malik“, „Mahmud Torobiy“, „O’tror“ kabi qissalarida ajdodl arimizning xorijiy istilochilarga qarshi mustaqillik uchun olib borgan kurashi tasvirlangan. Mirkarim Osim o‘z asarlarida Amir Temur, Ulug‘bek, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mashrab singari o‘zbek xalqi ulug‘ farzandlarining yorqin obrazlarini yaratib bergen. Uning „Zulmat ichra nur“, „Ajdodlar qissasi“, „Jayxun ustida bulutlar“, „Aljabrning tughilishi“, „Ibn Sino qissasi“, „Singan setor“ singari asarlari o‘zbek tarixiy qissachiligining yuksak namunalaridandir.

Mirkarim Osimning tarixiy qissa va hikoyalariga xos asosiy fazilatlar ularda tarixiy haqiqat bilan badiiy to‘qimaning o‘zaro o‘yg‘unligi, tarixiy shaxs obrazining tarixiy davr fonida yaratilganligi, xalqparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalarining bu asarlar osha „kizil ip“ o‘laroq o‘tganligi hamda badiiy til va uslubning soddaligi, shiraliligi, o‘zbekonaligidir.

M.Sholohovning „Tinch oqar Don“ (2-kitob), S. Borodinining „Yeldirim Boyazid“ romanlari va L.G.Batning „hayot bo‘stoni“ qissasi va boshqa asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan mukofotlangan (2002).

Ijodini she’riyatdan boshlagan Mirkarim Osim tarixiy asarlari orqali kitobxon nazariga tushgan. Butun umrini tarixiy hikoyalarga bag‘ishlab, ularda insoniylik, vatanparvarlik, qahramonlarga va tarixiy shaxslarga hurmat g‘oyasini ilgari surgan.

Adib tavalludining 70 yilligi munosabati bilan unga “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni berilgan, 2001 yil Vatan oldidagi unutilmas xizmatlarini uchun “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan. Tarixiy asarlari orqali butun xalqqa tanilgan Mirkarim Osim 1907 yil Toshkentda, ziyolilar oilasida tug‘ilgan. 1917-1920 yillar “Shams ul-urfon” boshlang‘ich mакtabiga boradi. 1921-1924 yillar Narimonov nomidagi ta’lim-tarbiya o‘quv yurtida tahsil oladi. 1926 yil Moskva Davlat Pedagogika universitetining tarix-iqtisod fakultetiga o‘qishga kirib, 1930 yil yaknulaydi. Keyinchalik Samarqanddagi o‘qituvchilarni tayyorlash kurslarida ishlab, 1932 yildan O‘zbekiston maorif ta’limi xalq komissarligi huzuridagi pedagogika ilmiy-tadqiqot institutida faoliyat yuritadi.

Mirkarim Osim faoliyatini she’riyatdan boshlaydi. Keyinchalik, o‘quv qo‘llanmalar, tavsiyanomalar va tarix darsliklarini yozadi. 1940 yildan boshlab Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida so‘zlovchi “Astrobod”, “Alisher Navoiy va Darveshali”, “Badarg‘a”, “Navoiyning xislatlari”, “Ulug‘bek va Navoiy” kabi hikoyalar yozadi.

Butun umrini tarixiy hikoyalar yozishga bag‘ishlab, ularda insoniylik, vatanparvarlik, qahramonlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan hurmatni ulug‘laydi.

Mirkarim Osim 40-yillar qatag‘on qurbaniga aylanadi va bir necha yillar mobaynida lager mashaqqatlarini boshdan kechiradi. 50-yillar vataniga qaytgach, u tarixiy asarlar ustida ishini davom ettiradi. Nashriyotlarda muharrir bo‘lib faoliyat yuritadi.

Mirkarim Osim asarlarini uch qismga ajratish mumkin:

1. Tarixiy-qahramonlik mavzuidagi asarlari.
2. Tarixiy-maishiy mavzuidagi asarlari.
3. Tarixiy-biografiy mavzuidagi asarlari.

Qahramonlik mavzusidagi asarlari: “O‘tror”, “To‘maris”, “Temur Malik”, “Aleksandr va Spitamen”.

Maishiy mavzusidagi asarlari: “Mohlar oyim va Xonposhsha”, “Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “Elchilar”.









Tarixiy-biografik asarlari: “Zulmat ichra nur” (Navoiy haqida), “Jayhun ustida bulutlar” (Beruniy haqida), “Ibn Sino qissasi”, “Aljabrning tug‘ilishi” (Al-Xorazmiy haqida), “Singan setor” (Mashrab haqida).



Adibning tavalludining 70 yillik munosabati bilan unga “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni berilgan.

Mirkarim Osim 1984- yil vafot etgan.

2001 -yil Vatan oldidagi xizmatlari uchun “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

Kitoblari ko`rgazmasi.





MIRKARIM OSIM. TO'MARIS (QISSA) DAN PARCHA

Cho'l bahor kelinchagi oyog'i ostiga chechaklar bilan bezalgan yashil poyandozini yoyib tashlagan. To'rg'aylar havoda pirillab ko'klamga madhiya o'qimoqda. Rango-rang kapalaklar chechaklarning xushbo'y hididan mast.

Allaqanday uzun oyoqli qushlar o'tlar orasida dumlarini likillatib, katta-katta bosib yuradi, toshbaqalar burishib ketgan xunuk bo'yinlarini o'tlarga cho'zadi,

qo‘ng‘izlar esa orqalariga qarab yurib, tezakdan yasagan qumaloqlarini allaqayooqqa yumalatadi. Qizg‘ish-qo‘ng‘ir bir ilon o‘t orasidan o‘rmalab kelib, atrofni tomosha qilayotgandek qaqqayib qolgan yumronqoziqqa tashlanadi, qushlarga o‘xshab chirqillab turgan kaltakesaklar qo‘rqib ketib oyoqlari bilan qumloq yerni ikki yonlariga chiqarib, tuproq ostiga yashirinadi. Ba’zan ovullar yaqnnidan ko‘kraklari oppoq sayg‘oqlar gala-gala bo‘lib chopib o‘tadi, yer gumburlab ketadi.

Orol dengizining janubidagi shu bepoyon cho‘llarning sohibi bo‘lgan ko‘chmanchi massagetlar kelin kutmoqda. Ularning qarorgohi bayram tusini olgan. Har yer-har yerga gulxan qalangan, kiyik va qo‘y go‘shti pishayotgan mis qozonlar go‘yo mehmonlarni sabrsizlik bilan kutayotgandek shaqir-shaqir qaynamoqda.

Qabila boshlig‘i To‘maris o‘g‘li Siparangizni shak urug‘idan Zarina degan bir qizga uylantirmoqda. Massagetlar kelinni olib keladigan mehmonlarni kutib olish taraddudida.

Yoshlar mehmonlarga joy hozirlamoqda, ayollar ovqat pishirmoqda, yangalar o‘tov xizmatini o‘taydigan uzun soyabon aravalarni bezatmoqda...

Charchab gulxan yonida o‘tirgan yoshlar uzoqdan ot choptirib kelayotgan choparni ko‘rib, o‘rinlaridan sakrab turib ketdilar.

— Kelin... kelin kelayotir,— deb baqirdi u harsillab.— Qariyalar oldinda... darhol kutib olinglar.

Chopar sakrab egardan tushdi-yu, otini qoziqqa bog‘lab, bir chekkadagi katta gulxan yaqinidagi chollar oldiga borib o‘tirdi.

Butun qarorgoh oyoqqa qalqib, aziz mehmonlarni kutishga hozirlandi. Oradan ko‘p o‘tmay uzoqda uchi ingichka namat qalpoq kiygan otliqlar ko‘rindi. Massaget yoshlari shaklarga peshvoz chiqib:

— Xush kelibsizlar, qo‘noqlar, poyqadamlaringizga hasanot,— dedilar va otlarini jilovidan ushlab, egardan tushishlariga yordam berdilar.

Shaklar otdan tushib, massaget qariyalari bilan ko‘rishganlaridan keyin atrofi soyabon aravalari bilan qurshalgan sayhon joyga, guldor namatlar ustiga chordana qurib o‘tildilar. Mezbonlar qo‘y terisidan qilingan supralarda pishirilgan go‘sht, meshlarda qimiz keltira boshladilar.

Kun botgandan keyin kelin va uning dugonalari tushgan uzun soyabon aravalari yetib keldi. (**Davomi bor.....**)

MIRKARIM OSIM. TEMURMALIK (HIKOYA) DAN PARCHA.

Xo‘jandni ikki bo‘lib oqqan Sirdaryoning o‘rtasida, shahardan bir chaqirim quyiroqdagi orolda qadimdan qolgan bir istehkom bor edi. Chet el istilochilari va

ko'chmanchilarga qarshi kurashda xalqning joniga oro kirgan bu ko'hna qal'aning burjlari o'pirilib ketgan, darvozalarining ba'zi yerlari buzilib, omonat bo'lib qolgandi. Boshiga og'ir kunlar kelgan-da Xo'jand ahli yana shu eski qal'aga panoh izlab keldi.

Chingizzon behisob lashkarlari bilan o'trorga yetib kelgach, bu shaharni qamal qilib olishni o'z o'g'illari o'ktoy bilan Chig'atoyga topshirib, Xo'jand shahri ustiga sarkardalari So'ktu bilan Uloq no'ytoni yuborgan, o'zi esa katta qo'shin bilan Qizilqum orqali Buxoro tomon yo'l olgan edi.

Xo'jand viloyatining hokimi Temur Malik daryo o'rtasida-gi qal'ani mustahkamlab, mo'g'ullar bilan jang qilishga jazm etdi.

Sir bo'yi ajoyib bir manzara kasb etgan: qirg'oqqa to'plan-gan kishilarni son-sanoqsiz qayiqlar va kemalar orolga tashimoqda, ketmon, bel, arra, andava, tesha, bolta ushlagan kishilar sabrsizlik bilan o'z navbatlarini kutmoqda edilar. Qal'a tepasidan yuzlarcha odamlar chumolidek uymalashib, devor va burchlarning shikastrextini tuzatmoqdalar.

Hamma xasharchilar orolga o'tib olganlaridan keyin ish jadallahish ketdi. Havoga tutun kabi ko'tarilgan chang-to'zon, g'ala-g'ovur ovozlar ishning yurishib ketganidan dalolat berardi. Kuch-quvvatni ayamay, ishtiyoq bilan ishlayotgan hasharchilar orasida o'qtin-o'qtin baland bo'yli bir kishi paydo bo'lar, o'zini hurmat bilan qarshilagan hasharchilarning ishlariga kushoyish tilab, ishda mahorat ko'rsatgan ustalarga tashakkur bildirar, sust ishlayotganlarga piching otib qo'yardi. Bu kishi Temur Malik edi. U ba'zan orqasidan ergashib yurgan mulozimining yelkasidagi xurjundan bir qism tanga olib, yaxshi ishlayotgan kishilarga ulashib berardi.

Ikki hafta ichida qafaning shikastrexti tuzatildi. Qal'aga himoyachilar uchun bir yillik ozuqa, qurol-yarog' tashib keltirildi. Mingdan oshiq bahodir va merganlar, yuzga yaqin kema-soz ustalar istehkomga joylashtirildi. Xotin, bola-chaqalar, chollar tog'li qishloqlarga jo'natildi.

Temur Malik bola-chaqasi bilan xayrlashish uchun hovlisiga kirdi. Xizmatkori Odina aravakash bilan sandiqlarni soyabon aravalarga ortayotgan edi. Ichkarida esa xotini bir yashar o'g'lini ko'tarib, erining kelishini sabrsizlik bilan kutib turardi. Xotini uni ko'rib yig'lab yubordi, o'g'li esa yaltiroq dubulg'a kiygan otasini tanimay, qo'rqib ketdi, yuzini teskari qilib, onasining yelkasini malikam changallab oldi. Temur Malikning ham ko'ngli buzilib, bo'g'ziga nimadir qadalgandek bo'ldi, tomog'ini qirib, xotiniga:

— Men o'lmay turib aza ochayotirsanmi? Ko'z yoshlaringni ayab qo'y, keyin kerak bo'lib qolar, — deya o'g'lini qo'liga olib o'pmoqchi bo'lgan edi, bola chinqirib yig'lab yubordi.

— Hoy, ahmoq bola, o'z otangni tanimadingmi, a? Men senga o'yinchoq olib keldim, — deb boshidagi yaltiroq dubulg'asini olib qo'ydi-da, sopoldan qilingan

qo'chqorni qo'ynidan chiqarib berdi. Bola o'yinchoqni olib, ovungach, xotiniga uqtirdi: — o'g'limni sen bilan Odinaga topshirib ketayotirman. U sog'lom, mard va rostgo'y yigit bo'lib o'ssin. Yurtimizga botir askar va askarboshilar kerak. Xayr, o'zingni ehtiyyot qil! (**Davomi bor.....**)

MIRKARIM OSIM. ZULMAT ICHRA NUR (QISSA)DAN PARCHA

YOSHLIK AYYOMINING ILK BAHORI

Alisher cho'kkalab olib xontaxta ustidagi kattakon bir kitobni varaqlab, surat ko'rib o'tirar edi. Ov va jang manzaralari uni shu qadar qiziqtirgan, xayolini shu qadar o'g'irlagan ediki, otasi kelib eshik oldida kavush yechayotganini ham payqamadi. Kichkina Bahodir deb nom chiqargan G'iyo'siddin endi to'rt yoshga kirgan o'g'li Alisherga kulimsirab qarab turdi. «Shul yoshdin kitobga muhabbat qo'ysa, ulg'aygach, albatta kitobni ilkidan ayirmay o'zi bila asrab yurg'ay», deb o'yladi ota shiringina, do'mboq o'g'lidan ko'zini uzolmay.

— Ha, bul yerga yosurunib olib ne qiladur, desam, kitob ko'rayotgan ekanlar-da,— dedi G'iyo'siddin piching aralash mehr bilan.

Otasi bu gagshi sekingina, kulib turib aytgan bo'lsada, Alisher sho'xlik qilib kattalardan dashnom eshitishdan qo'rqqan boladek olazarak bo'lib:

— Dada, mana bul suratni ko'ring,— dedi. Uning xiyol qiyiq ko'zлari mo'ltirar edi. — Maia bul cherik shotidan chiqayotib qulab tushmoqda, qo'rg'on ustinda turganlar o'q otib qulatg'on chiqarlar. Mana bunisi pastdin turib, qal'a ustidagilarga o'q uzmoqda.

Otasi o'g'lining gapini tasdiqlagandek, bosh irg'itib, uning qo'lidan kitobni asta oldi-yu, tokchaga, boshqa kitoblar yoniga qo'ydi.

— Bul kitobning o'rni tokchada,— dedi u yasama jiddiylik bilan,— ammo siz kitob ko'rmoqqa yoslik qilursiz, yirtib qo'ysangiz yaxshi bo'lmas. Ani ikki qo'y bahosiga sotib olg'onmen.

— Men kitobni yirtmaymen, avaylab ko'ramen.

— Aqli bolasan-da. Tentak bolalarg'ina ilkligiga tushgan kitoblarni pora-pora qiladurlar. Katta bo'lg'oningda senga ajoyib kitoblar sotub olg'aymen. Hozircha... mana buni o'ynab yur,— G'iyo'siddin kulib, cho'ntagidai «sopol qo'chqor» chiqarib berdi. Bola bu g'alati o'yinchoqni ko'rgach, ko'zлari o'ynab ketdi.— Qara o'g'lim, aning mugizlari qayrilg'on, suzib olmoqqa hozirlanib turadur.

— Menga bering,— deb bola sakrab o'yinchoqni uning qo'lidan tortib oldi,— ani Husayniing qo'chqori birla urishtirgaymen.

G'iyo'siddin devonxonadan kelib, dam olgandan so'ng ba'zan qo'liga kitob olib mutolaa qilar, shunday kezlar Alisher yoniga kelib o'tirib olar va ovoz chiqarib o'qishini so'rар edi. Otasi esa: «Yaxshisi, hikoya aytib beray», deb kitobni yig'ishtirib qo'yar va qiziq bir ertakni aytib berardi.

Alisherning tog‘alari: Mirsayid — «Qobuliy» va Muhammad Ali — «G‘aribiy» o‘qimishli yigitlar bo‘lib, forsiy va turkiy tilda she’r yozar edilar. Ular pochchalari G‘iyosiddinnikiga kelganlarida ilmiy, adabiy mavzularda qizg‘in bahs boshlanar va ba’zi kunlari suhbat g‘azalxonlik bilan tugar edi. Alisher xuddi kattalardek tog‘alari yonida o‘tirib, ularning gaplariga qulqoq solar, she’r tinglar edi. Garchi, u kitobiy so‘zlar va majoziy she’rlarga yaxshi tushunmasa ham, g‘azallarning ohangi, musiqiysidan zavqlanardi.

Katta tog‘asi Mirsayid jiddiy, kamgap, sipo odam edi, kichigi Muhammad Ali esa xushchaqchaq, gapdon yigit bo‘lib, tor va tanburni yaxshi chalar, o‘z suhbatini bilan majlisga jon kirgizar edi. Bir kuni u yaqindagina yozgan bir g‘azalini o‘qib berayotganida jiyani Alisherning diqqat bilagg qulqoq solayotganiggi ko‘rib, hayratda qoladi.

— Nevchun ajablanursiz? — dsydi G‘iyosiddin shoir qaynisiga, — Alisher ko‘chako‘yda bolalar bila o‘ynab yurib, tojik tilin o‘rganib olg‘on, onasi forsiy, turkiy g‘azallarni o‘qig‘onda qulqoq berib o‘tiradur va ba’zi matla’larni yoddan o‘qib beradur. — U o‘zining o‘tkir ko‘zlarini togasiga tikib o‘tirgan Alisherga yuzlanib dedi: — Qani, o‘g‘lim, shoir Qosim Anvor ne debdur?

Alisher qo‘ng‘iroqdek ovozi bilan dona-dona qilib shu matla’ni o‘qidi:

*Rindemu oshiqemu jahon so‘zu joma chok,
Bo davlati g‘ami tu fikri jahon chi bok?
(Biz beparvo oshiqlarmiz, yirtiq chopon, o‘t iafas,
Jahon g‘ami sening g‘amingga arzimas.) (Davomi bor.....)*

MIRKARIM OSIM. IBN SINO QISSASIDAN PARCHA

MA'RIFAT DARVOZASI

Boqqol Mahmud Massoh xaridor kutib, oppoq cho'qqisoqolini qashib o‘tiradi, ko‘zlar o‘tgan-ketganda. Uning do‘konida odamning jonidan boshqa hamma narsa topiladi. Qand-novvot deysizmi, holva, sabzi, piyoz, guruch deysizmi — hammasi bor. Agar biror xaridorga attorlik buyumları yoki igna, ip, mix va boshqa narsalar kerak bo‘lib qolsa, boqqol o‘rnidan turib do‘kon orqasidagi hujradan ularni topib olib chiqadi.

Odatda erta bilan va kechqurun bozori bir oz qiziydi-yu, tush paytida savdo-sotiq yotib qoladi. Bunday paytlarda ko‘chadan kichik bolalar o’tsa, zerikib o‘tirgan boqqol ularni chaqirib, qo’llariga ikkitadan yong'oq yoki ozroq shirinlik tutqazib, gapga soladi, keyin chopqillaganicha uyiga yugurgan norasidalar orqasidan jilmayib qarab qoladi.

Kunlardan bir kun Mahmud Massoh xaridor kutib o‘tirganida qotmadan kelgan, qirra burunli, ko‘zlar tiyrak bir bola kelib salom berdi-da, ikki paysa qora murch

va to'rt paysa dolchin so'radi.

Oq ko'yak ustidan olacha ipak to'n kiygan, gavdasi yo'g'on boqqol kichkinagina tarozisida yosh xaridoring aytgan narsalarini tortib, qo'lidan mayda chaqalarni oldiyu unga tikilib:

- Seni ilgari ko'rmas edim-ku, qaerliksan? — deb so'radi.
- Afshonalik. Dadamlar shu mahalladan hovli sotib olganlar, uch-to'rt yil burun. Men onam bilan qishloqda qolgan edim.
- Afshona atrofi qo'rg'on bilan o'ralgan katta qishloq, Qutayba binni Muslim ul yerga jome' soldirgan.
- Yaxshi bilar ekansiz, — dedi yosh xaridor, ko'zlar javdirab.
- Bo'lmasam-chi! Tevarak-atrofda men ko'rmagan joy yo'q. Yoshligimda massoh, ya'ni tanobchi bo'lib ishlar edim. Padaring kim? Otlari nima?
- Abdullo ibn Hasan, ibn Sino....
- Bo'ldi, bo'ldi, tanidim. Ul kishi saroyda baytul-molda xizmat etadurlar, ilgari Hurmitanda soliq yig'uvchi edilar. Obro'li, badavlat odam. O'shal kishining o'g'llariman degin. (**Davomi bor.....**)

MIRKARIM OSIM. ALJABRNING TUG'ILISHI

— Shahri Bagg'dodga sog'-salomat yetib kelganingizdan behad xursandman, yana ko'rishadigan kun bor ekan, — dedi uy egasi — marvlik Xolid ibn Abdumalik keng peshonali yosh mehmon bilan quchoqlashib ko'rishar ekan. — Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso janoblari qachon yetib kelar ekanlar, deb yo'lingizga muntazir edik. Alhamdulilloh, yana diydor ko'rishar ekanmiz, ming qatla shukurki, avvalgidek tetik va bardam ekansiz.

Ko'pdan buyon ko'rismagan ikki do'st, hol-ahvol so'rashib bo'lganlaridan keyin ko'rpa chaga o'tirdilar. Uzun yaktakli, qotmadan kelgan uy xizmatkori ularning oldiga dasturxon yozib, barkashda turli noz-ne'matlar va ikki kosa sharbat keltirib qo'ydi. Soch-soqoliga oq oralab qolgan o'rta yoshli mezbon xursandligini yashira olmay, "qani, olsinlar" degandek, tomirlari bo'rtib chiqqan qo'li bilan dasturxonni ko'rsatdi.

— Marv shahrida menga emakdosh bo'lgan yor-do'stlarni sog'indim, — dedi yoshi o'ttizdan oshgan, qalin qoshli mehmon non tishlab, behi sharbatidan ho'plar ekan, — Ahmad al-Farg'oni, Ahmad ibn Abdulloh, Muso ibn Shokir va uning o'g'llari sihat-salomat yuribdurlarmi?

— Alhamdulilloh, hammalari eson-omon, sizni ko'rishga, suhbatingizdan bahramand bo'lishga mushtoqdurlar.

Ular dasturxon ustida Xurosonda birga o'tkazgan kunlarini, boshlaridan kechirgan voqealarni eslab, suhbatlashib o'tirishdi. Mezbon tilining uchida turgan gapni

aytish uchun payt poylab turardi.

— Kechikib kelishingizning sababi nima? — deb so'radi u negadir o'zini noqulay sezib. — Xalifa hazratlari ham: "Na uchun Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso kechikdi, uni zudlik bilan huzurimga jo'nat, deb Xorazmshohga maktub yuborgan edim-ku", deganlarini ikki marotaba eshitdim. Nima hodisa yuz berdiki, shahri Bag'dodga qadam ranjida qilgingiz kelmadi? ;

— Buning sababini sizgagina aytta olaman, — dedi mehmon o'ylanqirab. — Ma'mun Xuroson qo'shini bilan Bag'dodni bosib olganidan so'ng o'z inisi Aminni qatl ettirganini, Ozarbayjonda boshlangan zardushtiyalar qo'zg'olonini shafqatsizlik bilan bostirib, asirlarni o'ldirayotganini eshitib, bu yerga kelishga oyog'im tortmay qoldi. Otashparastsan, deb begunoh odamlarni bola-chaqasi bilan qirib tashlash — o'ta zolimlik-ku!

Xolid ibn Abdulmalik oqara boshlagan boshini qashib, miyig'ida kulib qo'ydi-da:

— Sizga al-Majusiy deb laqab qo'yanlari bejiz emas ekan, otashparastlarga bu qadar xayrixoh ekanligingizning sababi endi ma'lum bo'ldi, — dedi.

— Ha, bobom rahmatli zardusht dini rahnamolaridan biri edilar. Arab sarkardasi Qutayba binni Muslim Xorazmni bosib olganidan keyin hammani zo'r lab islam diniga kiritdi. Xorazm yozuvini bilaturgan odamlarni o'dirtirib, qadimiy kitoblarimizni yondirib yubordi. Eski e'tiqodlariga sodiq bo'lgan bobom jon saqlab qolish uchungina arab tilida kalima keltirishga majbur bo'lgan ekanlar. (**Davomi bor.....**)

MIRKARIM OSIM. NUR VA ZULMAT (QISSA)

1. JAHON OTIN

Yo'Ining ikki tomonndagi qator teraklarga qo'nib olgan zarg'aldoqlar saroy soqchilaridek o'qtin-o'qtin bir-birlarshsh chaqirib, qandaydir noxush ahvoldan xabardor qilayotgandek edilar.

Kechki payt. Daraxtlarning soyasi uzunlashib, boqqa salqin tushgan. Zarbof, parcha, shoyi to'n kiygan saroy amaldorlari, beklar gerdayib, bog' o'rtasidagi xiyobondan ko'cha tomon yo'l olmoqdalar. Xuddi shunday paytda eski paranjili bir ayol baland devor bilan o'ralgan o'rda bog'ning naqshinkor darvozasi oldiga kelib, saroy bog'iga kirmoqchi bo'ldi.

— Hoy, kampir, orqaga qayt. Ne qilib tentirab yuribsan bul yerda? Ruxsati oliy bo'lmasa, hech kim saroya kiritilmaydur! — deb baqirdi ag'darma etik kiygan xush mo'ylovli qorovul yigit, qilichini yarim beligacha sug'urib.

— Qo'rqma, temirtagingni qiniga solib qo'y. Kallamni olishdan burun arzimni eshit, qorovul bola,— dedi ayol istehzo aralash. Uning do'q-po'pisadan qo'rqmaydigan o'ktam ayollardan ekanligi ko'rini turar edi.

— Kech bo'p qoldi, ishing bo'lsa ertaga kelarsan.

- Qachon kelishim bilan sening ishing bo‘lmasin. Men amirulmo“mipin huzurlariga kirmoqchimen.
- Onhazratning oldilarig‘a? — shoshib so‘radi yigit ko‘zlarini ola-kula qilib. — O‘zлari kim bo‘ladurlar?
- Nima qilasan kimligimni surishtirib? Xo‘jayinning qorovul begini chaqir! **(Davomi bor.....)**

MIRKARIM OSIM. SINGAN SETOR (QISSA)

1. O ‘TMISH BILAN UCHRASHUV

- Namangan shahridin ketganimga o‘n sakkiz yil bo‘libdur-a. Tavba, vaqt ham tog‘din ayqirib tushayotgan soydek tez oqib o‘tar ekan. Yaqinginada shu ko‘chalarni changitib yurar edik-ku — dedi Mashrab jome yonidagi tor ko‘chada eshagidan tushib.— Mana, uyimga ham yetib keldim. Nazarimda jum‘a masjid ham, mahallamizdagи uylar ham kichrayib qolg‘ondek.
- Bolalikda har narsa ko‘zga katta ko‘rinadur. Esingizdam, yoshligimizda yog‘och ot minib, mozor aylanib kelar edik. Keyin shu machit ichidin oqib o‘tgan suvda «otlari» mizni sug‘orib, alarni qantalar edik-da, o‘zimizni havzaga tashlar edik, — deb javob qildi, yuz-ko‘zini ajin bosgan Shodavlat iljayib.— Ba’zi vaqtarda nega otimg‘a yem bermading, deb meni koyirdingiz.
- Xo‘b vaqtlar edi-da! Bolaligimiz shu ko‘chalarda qolib ketdi. Yuzini oq doka ro‘mol bilan berkitgan bir ayol o‘tib ketayotib ularning gaplariga quloq solib turdi-da, keyin tezgina jo‘nab qoldi.
- Sen Qitmirni o‘zing bilan olib ket. Buvim itni yomon ko‘radilar,— dedi Mashrab o‘ymakor qilib ishlangan pastgina ko‘hna darvoza oldida to‘xtab.
- Xavotir olmang, uni och qo‘ymayman, parvarishlayman. Bir burda non topsam, yarmi uniki,— dsdi Shodavlat, tumshug‘ini ko‘tarib unga tikilayotgan qora itni silab.
- Torgina tashqari hovlini supurayotgan novchagina ayol ko‘chada gaplashib turgan ikki kishining so‘zlariga quloq solib turdi-da, yuzi yorishib ketdi, bir ozdan so‘ng, darvozani lang ochib, eshagini yetaklaganicha kirib kelayotgan Boborahimning oldiga yugurib keldi, uning yelkasini qoqib ko‘rishdi-da:
- Voy, aka, eson-omon... keldingizmi? — dedi hovliqib.— Tan-joningiz sog‘mi? Sizni ham ko‘rar kun bor ekan, kutaverib o‘lib bo‘ldik-ku!— Mashrabning singlisi o‘z og‘asini ko‘pdan buyon ko‘rmagan bo‘lsa ham, boshqalardan ajralab turadigan shakli-shamoyilidanmi, ishqilib uni darhol tanigan edi. **(Davomi bor.....)**

FOYDALANILGAN MANBALAR;

Internet ma`lumotlardan hamda kitoblardan foydalanildi

Osim ,Mirkarim. Ajdodlarimiz fojeasi [matn]: tarixiy qissalar / Mirkarim Osim.-T.: Zabarjad Media. 2019.-224 b.

Osim ,Mirkarim. Karvon yo`llarida: qissa / Mirkarim Osim.-T.: Adabiyot uchqunlari. 2018.-128 b.

Osim ,Mirkarim. Sehirli so`z [matn]/ M. Osim.Navoiy haqida hikoyalar-T.: Cho`lpon nomidagi NMIU,. 2019.-80 b.

Osim ,Mirkarim. To`maris [Matn]: tarixiy qissa/ M. Osim.-T: Yoshlar nashryot uy, 2018.-144 b.

Osim ,Mirkarim. Aljabrning tug`ilishi: qissalar/ M. Osim.-T: Yangi asr avlod, 2018.-144 b.

Osim ,Mirkarim. Zulmat ichra nur/ M. Osim.-T: G`ulom nomidagi nashryot – matbaa ijodiy uyi, 2019.-168 b.